

INGLIZ TILI BADIY NUTQIDA “VABO” (PLAGUE) SO‘ZINING ISHLATILISHI

Baxronova Matluba Axmedovna,

Buxoro davlat pedagogika instituti katta o‘qituvchisi

baxronovamatluba@gmail.com

Annotatsiya: Kasallik nomlarini bildiruvchi so‘zlar barcha tillarda faqat ilmiy jihatdan emas, og‘zaki va badiiy matnlarda ham keng qo‘llanib keladi. Ular har bir mamlakatning o‘ziga xos dunyoqarashi, turmush tarzi, madaniy va ma’naviy g‘oyalari, tarixi, urf-odatlarini o‘zida mujassam etgani bilan qimmatlidir. Ularning leksik-semantik, uslubiy-funksional va yozma ijodiy nutq qo‘llanilishining o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash uchun bu juda muhim hisoblanadi. Maqolada ingliz adabiyoti namunalarida “vabo” so‘zining o‘z va ko‘chma ma’nolarda, ramziy timsoliy qo‘llanilishi tahlil qilinishi orqali uning etimologiyasi, badiiy ifodasi, metaforik tarzda berilishi, bu so‘z asosida shakllangan ibora va idiomalar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: kasallik, vabo, ma’no, plague, epidemiya, simvolizm, ijtimoiy og‘riq, o‘rta asr ingliz adabiyoti, pestis, illat.

THE USE OF THE WORD “PLAGUE” IN ENGLISH ARTISTIC SPEECH

Baxronova Matluba Axmedovna,

Senior lecturer of Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: Words denoting the names of diseases are widely used in all languages, not only in scientific terms, but also in oral and artistic texts. They are valuable because they embody the unique outlook, lifestyle, cultural and spiritual ideas, history, and traditions of each country. It is very important to determine the specific features of their lexical-semantic, stylistic-functional and written creative speech. The article discusses the etymology, artistic expression, metaphorical rendering of the word "plague" in its literal and figurative meanings, as well as its figurative use in examples of English literature, as well as the expressions and idioms formed on the basis of this word. .

Key words: disease, plague, meaning, plague, epidemic, symbolism, social pain, medieval English literature, pestis, disease.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ СЛОВА “PLAGUE” В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ РЕЧИ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА

Бахронова Матлуба Ахмедовна,

Старший преподаватель Бухарского государственного педагогического
института

Аннотация: Слова, обозначающие названия болезней, широко используются во всех языках не только в научных терминах, но и в устных и художественных текстах. Они ценны тем, что воплощают уникальный мировоззрение, образ жизни, культурные и духовные идеи, историю и традиции каждой страны. Очень важно определить особенности их лексико-семантической, стилистико-функциональной и письменной творческой речи. В статье рассматриваются этимология, художественное выражение, метафорическая передача слова «чума» в его прямом и переносном значениях, а также его переносное употребление в примерах английской литературы, а также выражения и идиомы, образовавшиеся на основе этого слова.

Ключевые слова: болезнь, чума, значение, чума, эпидемия, символика, социальная боль, средневековая английская литература, pestis, болезнь.

KIRISH.

Ingliz xalq og‘zaki ijodining keng tarqalgan ixcham shaklli, purma’no janrlaridan biri bo‘lgan maqollar asrlar davomida og‘izdan og‘izga o‘tib kelmoqda. Ular har bir millatning tili va adabiyoti rivojida katta rol o‘ynab kelgan. Maqol mantiqiy tugallangan ma’noli, avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, axloqiy qarashlari mujassamlashgan folklor namunasidir. E’tiborli jihati shundaki, ularning ayrim namunalarida kasallik nomlari ifodasini ham kuzatish mumkin. Aytish kerakki, ular butun dunyo xalqlari tili va nutqida o‘ziga xos mavqega ega. Ular har bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayoti, turmush tarzi, davolash

magiyasi bilan bog'liq ishonch-e'tiqodlari, urf-odatlarini o'zida ifodalab kelishi bilan qimmat hosil qiladi. Bu ularning og'zaki va yozma ijodiy nutqda leksik-semantik, uslubiy-funksional qo'llanilishining o'ziga xos xususiyatlarini farqlashni talab qiladi.

Insonlar tomonidan tibbiy leksika sifatida asrlar davomida shakllanib kelgan va o'zida tibbiyot bo'yicha to'plangan bilim va tajribalarni, sihat-salomatlik bilan bog'liq tushunchalarni namoyon etuvchi so'zlar, iboralar, kasallik nomlari har bir tildagi kabi ingliz tilida ham alohida tizimni tashkil qiladi. Xuddi shu tizimda ular bilan aloqadorlikda hosil bo'lgan maqollarning ham o'rni bor.

Dastlab ingliz tilidagi "plague" – "vabo" so'zining kelib chiqish tarixi va ishlatilishini tadqiq qilganimizda, quyidagilar oydinlashdi:

"Vabo" so'zi paydo bo'lganidan beri ushbu kasallik nomi ko'pincha metafora sifatida ishlatilishining guvohi bo'lamiz. Yaqin vaqtgacha vabo tushunchasi ko'pchiligimiz uchun tarixga tegishlidek tuyuladi va u azob-uqubat haqidagi umumiy g'oyaga bog'langan. Misrning o'nta azob-uqubati kasallik bilan cheklanmaydi, bular "Ten plagues of Egypt" – "Misrning 10 vabosi" deb nomlanib, shu tarzda tarixga kirgan. Bular: Nil daryosidagi qon; qurbaqalar; bitlar; chivinlar; chorva mollarini o'ldirish; yiringli qaynashlar; do'l; chigirtkalar; qorong'ulik; va to'ng'ich o'g'illarining o'limi kabilardan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Vabolar, xuddi urushlar kabi tarixiy yozuvlardagi ko'rsatgichdir. Bokkachcho, Daniel Defo, Albert Kamyu va Gabriel Garsia Markes kabi turli xil mualliflar vabo davrida buyuk adabiyot asarlarini yaratdilar. Kamyuning misolida vabo fashizm uchun allegoriya sifatida tanlangan. Bu ma'lum bir joyga kirib boradigan va ko'pchilik odamlar sezmasdan turib, keyinchalik inson xatti-harakatlarida nozik o'zgarishlarga olib keladigan narsaning metaforasidir. Hozirgi kunda tez sur'atlar bilan kasallik qo'zg'oloni bilan to'qnash kelganda (COVID-19 bilan bo'lgani kabi) vaboga o'xshash so'zdan ko'ra epidemiya yoki pandemiya kabi klinikroq so'z bilan atalishini ko'rish mumkin. Ammo o'tmishda bu falokatning oqibati yomonlgi inobatga olinib, "qora vabo" birikmasi qo'llangan.

Bunda uning tarkibidagi “qora” sifatlovchisi yashirin tarzda “o‘lim” tushunchasiga ishora qilib turgan.

“Vabo” so‘zining gapda qanday ishlatilishini misollarda ko‘rib chiqsak:

In the same year, a plague of natural disasters broke out in the country.

Tarjimasi:

O’sha yili mamlakatda tabiiy ofatlar vabosi avj oldi.

Yoki boshqa bir misolda:

Hududda bank o‘g‘irlash vabosi avj olgan.

Ushbu misollarda “vabo” so‘zi **illat** ma’nosida qo‘llanilmoqda.

“**Plague**” so‘zi o‘zagidan yasalgan so‘zlar ham mavjud, bunga **anti-plague** – **vaboga qarshi** so‘zi sifat bo‘lib, vaboga qarshi chora-tadbirlarni qo‘llash ma’nosida ishlatiladi. Masalan, *anti-plague measures*. “Merriam-Webster.com Dictionary”da berilgan ma’lumotga ko‘ra **plague** atamasi ilk marotaba 1817-yilda ishlatilgan.

Plague so‘zining o‘zagidan **plaguer** – bezor qiluvchi kishi, **plaguesome** – qiyin, tashvishli, yoki **plaguey** – g‘azabli yoki tashvishli kabi ot va sifat yasovchi qo‘shimchalar qo‘shish orqali yangi so‘zlar yasalgan.

Vabo jargonda nimani anglatishi ham e’tiborga mo’lik masalalardan biri. Ingliz tilidagi **Plague** – **vabo** atamasi bilan bir nechta frazalar bor. Bilamizki, vabo tuzalmas kasallikdir, hattoki u tabulashtiriladi. Inglizlarda **a plague on both your/their houses** maqoli ikki qarama-qarshi odam yoki guruhning har ikkalasidan g‘azablanish, jirkanish yoki rad etish nidosi, so‘kinch so‘z sifatida aytiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Ingliz adabiyotida ham yozuvchi va shoirlar tomonidan xalq maqollaridan unumli foydalanilgan, xususan, quyidagi misollarimizda kasallik nomlari qatnashgan ingliz maqollaridan bir nechitasi tahlil qilingan.

Go‘dakligida ikkita katta aka-ukasini vabo tufayli yo‘qotgan Uilyam Shekspir vabo so‘zini kamida 25 ta turli pyesalarida ishlatgan, ammo o‘latning o‘zi kamdan-kam hollarda syujet sifatida tilga olinadi. Birorta qahramon vabodan

o'lmaydi. Buning o'rniga Shekspir vabo tushunchasini metafora sifatida ishlatishni afzal ko'rdi. Eng mashhur qo'llanilishi Mercutioning Romeo va Julietdagi misrasi bo'lishi mumkin. U o'limdan oldin bir necha marta takrorlanadi.

Tybalt under Romeo's arm stabs Mercutio, and flies with his followers

Mercutio : I am hurt.

A plague o' both your houses! I am sped.

Is he gone, and hath nothing?

What, art thou hurt? Ay, ay, a scratch, a scratch; marry, 'tis enough. Where is my page? Go, villain, fetch a surgeon.

Tarjimasi:

Tibalt paytini poylab Romeo qo'li ostidan Mercutioni yaralab hamrohlari bilan qochib ketadi

Mercutio: *Yaralandim.....*

Menga omin! Vabo tushsin xonalaringga!

U ketdimi? Yaralanmay butun ketdimi?

.....Bitta yara, lekin buning o'zi ham yetar:

Hoy mahramim!Hoy yigitcha, jarrohni chaqir! (3,104)

Ushbu misralar tarjimoni Maqsud Shayxzoda "Vabo tushsin xonalaringga" deb tarjima qilgan, ya'ni O'rta asrlarda Angliyada dardi bedavo vabo kasalligi tarqalib, ko'p aholi qirilib ketgan va bu kasallik nomi bilan so'kinch so'zlari paydo bo'lgan. Yuqoridagi jumlada ham yaralargan Mekutsio uni shu ahvolga solgan kishilarni Uyingga vabo tushsin, ya'ni qirilib ket, deya vabo so'zini la'natning umumiy ifodasi sifatida qo'llagan.

Yana bir birikma ***plague someone or something with something*** iborasi tashvish, masxara qilish doimiy harakatlar bilan bezovta qilish yoki g'azablantirishni anglatadi, bundan tashqari, "tashvish", ya'ni odamni umidsizlikka olib keladigan tinimsiz hujumni anglatadi. Masalan: "*Stop plaguing me with your requests. Meni talablaringiz bilan bezovta qilishni bas qiling*" yoki "*We plagued the committee with ideas. Biz qo'mitani o'z g'oyalarimiz bilan bezor qildik*".

Shekspir “Otello” pyesasida ushbu frazadan foydalangan va уни G‘.G‘ulom quyidagicha tarjima qilgan: **IAGO**. *Call up her father, Rouse him, make after him, poison his delight, Proclaim him in the streets, incense her kinsmen, And, though he in a fertile climate dwell, Plague him with flies. Though that his joy be joy, Yet throw such changes of vexation on't As it may lose some color.*

— William Shakespeare, *Othello*.

YAGO. Otasini borib uyg‘oting

Darrov boring izlaridan, maydonda turib

Hayqiringu qarindoshin barin chaqiring.

Modomiki u o‘lkada baxtiyor yashar,

Yuboringiz chivinlarni barin talasin,

Uning tinchlik,saodatin shunday zaharlang

Unniqib ketsin.(G‘.G‘ulom tarjimasi)

Yana bir misol, quyida berilgan adibning “Richard III” dramasidan olingan parchadan ham shu so‘zdan unumli foydalanilgan:

QUEEN MARGARET. *And leave out thee? Stay, dog, for thou shalt hear me. If heaven have any grievous **plague** in store*

Exceeding those that I can wish upon thee,

O, let them keep it till thy sins be ripe,

And then hurl down their indignation

On thee, the troubler of the poor world's peace!

– William Shakespeare, *Richard III*.

QIROLICHA MARGARET. *Va sizni tark etasizmi? Qani, it, sen meni eshitasan. Agar jannatda biror og'ir vabo bo'lsa, senga tilaganlarimdan ham oshib ketadi, ey, gunohlaring pishib etgunicha uni saqlasinlar, So'ngra g'azablarini to'kib tashlasinlar, ey bechora dunyo tinchligini buzuvchi!*

TAHLIL VA NATIJALAR.

Bundan tashqari, yuqoridagi iboraga yaqin **(something) is enough to plague a saint**, ya'ni nimadir yoki qaysidir bir ish hattoki eng sabrli kishini ham bezovta

qilishi ma'nosida ishlatiladi. Misollarda ko'radigan bo'lsak:
Being with screaming kids all day is enough to plague a saint.

Kun bo'yi qichqirayotgan bolalar bilan birga bo'lish eng sabrli kishining ham joniga tegadi.(6)

Ayni paytda butun dunyo keng tarqalgan va halokatli kasallik bo'lgan koronavirus pandemiyasini boshdan kechirmoqda. Virus keltirib chiqargan yolg'izlikning kuchayishi sharoitida adabiyot va san'atdagi o'tmishdagi yuqumli epidemiyalarning tarixiy hikoyalari katta e'tiborni tortdi. Biz hozir o'zimizni haqiqiy ofat bilan kurashayotgan bu asrda, garchi epidemiya va pandemiya afzal qilingan belgilar bo'lib qolsa ham vabo so'zi metaforadan haqiqiy, o'z ma'nosiga qaytishni ko'rish mumkin, masalan, Vabo mavzusini aks ettiruvchi zamonaviy ingliz romanlaridan biri - Emili Sent-Jon Mandelning "O'n birinchi stantsiya".

2014 yilda nashr etilgan roman insoniyatning ko'p qismini yo'q qiladigan o'lik gripp pandemiyasining avj olishidan keyingi apokaliptik dunyoda sodir bo'ladi. Hikoya bu vayron bo'lgan landshaftni aylanib o'tadigan, kasallik vayron bo'lgan dunyoda yo'qotish, omon qolish va ma'no izlash bilan kurashayotgan bir guruh qahramonlar atrofida aylanadi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, adabiyotda vaboning keng tarqalgan mavjudligi kasallik, o'lim va jamiyatdagi g'alayon bilan bog'liq odamlar tajribasining kuchli aksi bo'lib xizmat qiladi. Adabiyot ob'ektivi orqali biz vabolarining ham tarixiy, ham majoziy jihatdan shaxslar va jamoalarga chuqur ta'siriga guvoh bo'lamiz. Demak, ingliz tilidagi "plague"- "vabo" so'zi badiiy adabiyotda yozuvchi va shoirlar tomonidan nafaqat o'z ma'nosida, balki ko'chma ma'noda ham keng qo'llanilib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rene Gerard , *The Plague in Literature and Myth* ,Vol. 15, No. 5, A Special Classics Issue on Myth and Interpretation (1974), University of Texas Press, pp. 833-850

2. Shakespeare, W. (1907). *Shakespeare: Romeo and Juliet* (Vol. 26). TY Crowell & Company.

3. Shakespeare, W. (2008). *William Shakespeare Richard III*. Macmillan.

4. Shakespeare, W. (1991). *Othello*: [1622]. *Oxford Text Archive Core Collection*.

5. <https://www.merriam-webster.com/wordplay/plague-word-history-literary-metaphor>

6.

Cambridge Dictionary <https://dictionary.cambridge.org> › ...

7. Akhmedovna, Bakhronova Matluba, and Nesmelova Olga Olegovna. "THE USE OF DISEASES IN THE WORKS OF JACK LONDON." *Ustozlar uchun* 18.2 (2023): 81-85.

8. Akhmedovna, Bakhronova Matluba. "REPRESENTATION OF DISEASES AS SYMBOLS OF SOCIAL ISSUES IN REALISM IN ENGLISH LITERATURE." *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429 12.05 (2023): 26-29.